

INTELLEKTUAL KAMOLOT VA IJODIY ERKINLIK

"University of economics and pedagogy"

falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Abdalimova Matlubaxon Abduqodirovna

Maktabgacha ta`lim yo`nalishi 1-bosqich talabasi

Mamajonova Shaxnoza

Annotatsiya

Ushbu maqola intellektual kamolot va ijodiy erkinlikning o'zaro bog'liqligi, ularning shaxsiy va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni haqida so'z yuritadi. Maqolada falsafiy va psixologik nazariyalarga asoslangan holda, intellektual rivojlanishning ijodkorlikka ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, ijodiy erkinlikni cheklashning salbiy oqibatlari haqida dalillar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: intellektual kamolot, ijodiy erkinlik, tafakkur, ijodkorlik, falsafiy nazariya, rivojlanish.

Abstract

This article explores the interconnection between intellectual development and creative freedom, highlighting their significance in individual and societal progress. The article analyzes the impact of intellectual growth on creativity, based on philosophical and psychological theories. Furthermore, evidence is presented on the negative consequences of restricting creative freedom.

Keywords: intellectual development, creative freedom, reasoning, creativity, philosophical theory, progress.

Аннотация

В данной статье рассматривается взаимосвязь интеллектуального развития и творческой свободы, а также их значение в личностном и общественном прогрессе. В статье анализируется влияние интеллектуального роста на творчество на основе философских и психологических теорий. Кроме того, приводятся доказательства негативных последствий ограничения творческой свободы.

Ключевые слова: интеллектуальное развитие, творческая свобода, мышление, креативность, философская теория, прогресс.

Kirish

Zamonaviy jamiyatda intellektual kamolot va ijodiy erkinlik masalasi dolzarb mavzulardan biriga aylandi. Intellektual rivojlanish nafaqat shaxsning shaxsiy muvaffaqiyatiga, balki umumbashariy taraqqiyotga ham hissa qo'shadi. Shu bilan

birga, ijodiy erkinlik – bu yangi g'oyalar va innovatsiyalarni yuzaga chiqarishning muhim sharti. Bu ikki jarayonning uyg'unligi insoniyatni yanada yuksaklikka olib chiqadi.

Intellektual kamolot insonning tafakkur qobiliyatlarini rivojlantirish, bilim olish va ulardan samarali foydalanish ko'nikmalariga asoslanadi. Falsafa tarixida bu tushuncha Sokrat, Aristotel va Konfutsiy asarlarida keng muhokama qilingan. Sokratning “Bilim o'zingni anglashdan boshlanadi” degan fikri shaxsiy kamolotning ahamiyatini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, zamonaviy psixologiyada intellektual rivojlanish masalasi Piya, Vigotskiy va Gardner kabi olimlar tomonidan o'rganilgan. Gardnerning “Ko'p intellekt nazariyası” intellektual qobiliyatlarning turfa xilligini isbotladi va ijodiy erkinlikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Ijodiy erkinlik insonning o'z fikrlarini, his-tuyg'ularini va g'oyalarini erkin ifodalash imkoniyatini anglatadi. Bu jarayon intellektual rivojlanish bilan chambarchas bog'liq. Masalan, Leonardo da Vinci yoki Alber Eynshteyn kabi shaxslar erkin fikrlash va ijodiy yondashuv orqali yangi fan sohalarini rivojlantirganlar. Psixolog Mihay Chiksentmihayi tomonidan ilgari surilgan "oqim" nazariyasiga ko'ra, inson o'ziga qiziq bo'lган faoliyat bilan shug'ullanganida ijodkorlik va samaradorlik eng yuqori darajaga yetadi.

Zamonaviy ta'lif tizimi ijtimoiy, siyosiy, texnologik rivojlanish jahhalari bilan uyg'unlikda mazmun, talab, sifat o'zgartirishini boshdan kechirmoqda. Bu obyektiv ravishda zarurdir, chunki aks holda oliy ta'lif muassasasiy ijtimoiy ta'lif instituti maqomini yo'qotadi. Boshqa tomonidan, pedagogik korpusning ekstensiv pedagogik va metodik qoidalar asosida tarbiyalangan, va faqat "o'qituvchi" nomi muayyan ijtimoiy imtiyozlarni berishi mumkin deb ishonadigan qismi, yangiliklarga psixologik va metodik tayyor emasliklari sababli innovatsion pedagogika va metodika sharoitida doimiy psixologik taranglik holatida tushib qoldi.

Intellektual kamolot ijodiy erkinlikning poydevori bo'lsa, ijodiy erkinlik esa intellektual taraqqiyotning samarasidir. Falsafa olami bu bog'liqlikni Platonning “Ideal davlat” konsepsiyasidan tortib, Nyutshening “Nihilizm” g'oyalarigacha chuqur tahlil qilgan. Zamonaviy pedagogika bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi. Vygotskiyning “Yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasiga ko'ra, shaxsning rivojlanishi uchun ijodiy erkinlik zaruriy shartlardan biridir.

Oliy ta'lif muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning intellektual-ijodiy kompetentliligini rivojlantirish bilan ta'lif mazmunini, tuzilishini, funktsiyalarini o'zgartirish mumkin. Pedagogik oliy ta'lif muassasalarida yuqori darajada ta'lif olgan, professional, intellektual-ijodiy kompetent mutaxassisni tayyorlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Biz yuqori malakali mutaxassisni kreativ kompetentligi shakllantirilgan shaxs sifatida tayyorlash muammosini oliy maktabni isloh qilishning dolzarb masalalari qatoriga kiritamiz. Ta'lifda bo'lajak o'qituvchilar

bilim,ko'nikma,malakalar bilan bir qatorda, zamonaviy interfaol, faol metodlar, innovatsion texnologiyalar bilan tanish bo'lishlari lozim. Bo'lajak o'qituvchilar tanqidiy, tahliliy,mantiqiy fikrlaydigan, og'zaki va yozma nutqi yaxshi, ijodkor va tashabbuskor, o'quv jarayonida zamonaviy o'qitish uslublaridan foydalanish malakalariga ega bo'lishi darkor. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilar o'quv jarayonida, natijalar ko'rsatishda, mustaqil qarorlar qabul qilishdan qo'rqlaydigan, ishdan zavq oladigan mutaxassislar bo'lishligi muhim hisoblanadi. V.V.Serikovning fikricha, ta'limning sifati modernizatsiyaning muhim natijasi hisoblanadi, Mutaxassisning kompetentligi ta'limni modernizatsiya qilish nuqtai nazaridan sifatning integral ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi. Bunday kompetentlik bilim va malakalarning ma'lum miqdori bilan belgilanmaydi, balki insonning olingan bilim va tajribasini konkret vaziyatda safarbar qila olish malakasini tavsiflaydi. "Bilimlarga" asoslangan, fanga oid tajribadan farqli o'laroq, kompetentlik oldindan tayyor holda mavjud emas. Har bir sub'ekt uni o'zi uchun yangidan yaratishi shart. Birovning kashfiyotini, qoidasini o'zlashtirish mumkin, ammo birovning kompetentligini o'zlashtirib bo'lmaydi. Kompetentlik individual ijodkorlik va o'zini mustaqil rivojlantirish mahsuli sifatida yaratilishi kerak".

Ijodiy erkinlikni cheklash tafakkurning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Tarixdan ma'lumki, totalitar rejimlar ijodkorlikni cheklash orqali jamiyatni stagnatsiyaga olib kelgan. Masalan, sovet davridagi senzura ko'plab yozuvchilar, rassomlar va olimlarning faoliyatiga zarar yetkazdi. Shu sababli, intellektual rivojlanishni ta'minlash uchun ijodiy erkinlikni hurmat qilish zarur.

Xulosa

Intellektual kamolot va ijodiy erkinlik inson hayotida va jamiyat taraqqiyotida ajralmas ahamiyatga ega. Ushbu jarayonlarni uyg'unlashtirish orqali insoniyat yuksak natjalarga erishishi mumkin. Shaxsning intellektual salohiyatini oshirish va ijodkorlik uchun shart-sharoit yaratish – bu bugungi kundagi dolzarb vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sokrat. "Falsafa asoslari". Yunon falsafasidan qisqacha bayon.
2. Vygotskiy L.S. "Psixologik rivojlanish nazariyalari". Moskva, 1986.
3. Gardner H. "Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences". Basic Books, 1983.
4. Chiksentmihayi M. "Flow: The Psychology of Optimal Experience". Harper & Row, 1990.
5. Platon. "Ideal davlat". Toshkent, 1995.
6. Nyutshe F. "Nihilizm va inson qadriyatlari". Moskva, 2000.
7. Mihaylov A.A. "Ijodiy tafakkur va uning rivoji". Toshkent, 2010.